



ACTIVITIES OF NATIONAL-CULTURAL CENTERS IN UZBEKISTAN. THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION

Umid Ashrafovich Rakhmatulloyev

Teacher, Faculty of History and Law

Bukhara State University

u.a.raxmatulloyev@buxdu.uz

Science ID: MBX-0526-0081

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: nation, national-cultural centers, interethnic harmony, value, cultural heritage, tolerance, cultural and educational activities, national identity, solidarity, friendship.

Received: 09.09.26

Accepted: 10.09.26

Published: 11.09.26

Abstract: This article analyzes interethnic relations in Uzbekistan from the second half of the 20th century to the 2000s, the formation and activities of national-cultural centers, their role in preserving national values, customs and traditions. It also covers the establishment of national-cultural centers operating in the Bukhara region, their cultural and educational activities, and their contribution to ensuring interethnic harmony. The study pays special attention to the importance of national-cultural centers in preserving cultural diversity in society and strengthening friendly relations between representatives of different nationalities.

O'ZBEKISTONDA MILLIY – MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATI. BUXORO VILOYATI MISOLIDA

Umid Ashrafovich Raxmatulloyev

Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti o'qituvchisi

u.a.raxmatulloyev@buxdu.uz

Ilmiy identifikatsiya raqami: MBX-0526-0081

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: millat, milliy-madaniy markazlar, millatlararo totuvlik, qadriyat, madaniy meros, bag'rikenglik, madaniy-

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda XX asrning ikkinchi yarmidan 2000-yillargacha bo'lgan davrda millatlararo munosabatlar, milliy-madaniy markazlarning

ma'rifiy faoliyat, milliy o'zlik, birdamlik, do'stlik.

shakllanishi va faoliyati, ularning milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni asrab-avaylashdagi o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, Buxoro viloyatida faoliyat yuritgan milliy-madaniy markazlarning tashkil topishi, madaniy-ma'rifiy tadbirlari hamda millatlararo totuvlikni ta'minlashga qo'shgan hissasi yoritiladi. Tadqiqotda milliy-madaniy markazlarning jamiyatdagi madaniy xilmaxillikni saqlash va turli millat vakillari o'rtasidagi do'stlik munosabatlarini mustahkamlashdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ УЗБЕКИСТАНА. ПРИМЕР БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Умид Ашрафович Рахматуллоев

Преподаватель Исторического и

Юридического факультета Бухарского государственного университета

Научный идентификационный номер: MBX-0526-0081

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: нация, национально-культурные центры, межэтническая гармония, ценности, культурное наследие, толерантность, культурно-просветительская деятельность, национальная идентичность, солидарность, дружба.

Аннотация: В данной статье анализируются межэтнические отношения в Узбекистане со второй половины XX века до 2000-х годов, формирование и деятельность национально-культурных центров, их роль в сохранении национальных ценностей, обычаев и традиций. Также рассматривается создание национально-культурных центров, действующих в Бухарской области, их культурно-просветительская деятельность и вклад в обеспечение межэтнической гармонии. Особое внимание уделяется важности национально-культурных центров в сохранении культурного многообразия в обществе и укреплении дружеских отношений между представителями разных национальностей.

Kirish. XX asrning so'nggi yillarida O'zbekistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar mamlakat hududida istiqomat qiluvchi turli millat va elatlarning milliy-madaniy manfaatlarini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Mazkur jarayon natijasida milliy-madaniy markazlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun huquqiy hamda

tashkiliy asoslar yaratila boshlandi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, turli millat vakillarining o'z tili, madaniyati, urf-odatlar va an'analarini asrab-avaylash hamda rivojlantirishiga alohida e'tibor qaratildi. Milliy-madaniy markazlar ana shu jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida millatlararo totuvlik, o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Ushbu markazlarning faoliyati madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, milliy bayram va an'analarni targ'ib qilish hamda turli millat vakillari o'rtasidagi do'stlik aloqalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Buxoro viloyatida ham milliy-madaniy markazlarning shakllanishi va faoliyati hududdagi milliy-madaniy xilma-xillikni saqlash hamda rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda kechdi. Shu nuqtayi nazardan, 1900-2000 – yillar oralig'ida O'zbekistonda, xususan, Buxoro viloyatida milliy-madaniy markazlar faoliyatining shakllanishi va rivojlanishini o'rganish mazkur davrdagi millatlararo munosabatlar hamda madaniy jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolani yozishda M.Norinovning “Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida madaniy hayot (1991 – 2023)”. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi, Z.Yusupovning O'zbekiston madaniyatida milliylik va baynalmilallik (1970 – 2000 yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyadan, vaqtli matbuot nashrlaridan va prezeident farmon, qarorlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda obyektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, umumlashtirish, yakuniy xulosa, tarixshunoslik, tarixiy o'lkashunoslik va O'zbekiston tarixi fanlari natijalaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. O'zbekistonda 1989 – yilgi aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari ro'yxatga olingan. Davlat statistika departamentining 2002 – yilgi ma'lumotlariga ko'ra tojiklar 1202,0 ming, ruslar, 1122,3 ming, qozoqlar 989,0 ming, qoraqalpoqlar 534,8 ming, tatarlar 298,2 ming, qirg'izlar 221,8 ming, koreyslar 172,4 ming, turkmanlar 147,0 ming, ukrainlar 103,5 ming, beloruslar 23,2 ming, armanlar 43,6 ming, yahudiylar 12,3 ming, nemislar 7,5 ming, moldavanlar 5,2 ming, gruzinlar 3,9 ming va boshqa millatlar vakillaridan iborat bo'lgan. Respublikada 1992 – yilda 10 milliy madaniya markaz bo'lgan bo'lsa, 2000 – yilga kelib bu raqam 138 taga yetadi. O'zbekistonda 1995 – yilning 21 – iyulida Respublika Baynalmilal markazida Ukraina Respublikasi prezidenti L.Kuchma bilan ukrain jamoasi o'rtasida do'stona uchrashuv o'tkazilgan bo'lsa, 1999 – yilning 12 – dekabrda esa Rossiya Federatsiyasi prezidenti V.Putin bilan rus madaniyati markazlari vakillari o'rtasida do'stona suhbatlar tashkil etiladi [1.B 120,123]. O'zbekistonda XX asrda ro'y bergan ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlardan biri bu respublikaga ikkinchi jaxon urushi yillarida

ko'plab millat va etnik xalq vakillarining ko'chirilishi bo'ldi. Buning natijasida respublika yashayotgan millatlar soni yuzdan oshdi. Ko'chirib keltirilgan millat vakillarini mahalliy xalq vakillari begonalar emas balki o'z birodarlaridek qabul qilib ularga uy-joylaridan boshpana berib, birgalikda mehnat qilib yashab kelishdi.

O'zbekistondagi ilk milliy madaniyat markazlari 1989-yili koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan tuziladi. 1990 – yillari boshlarida respublikada bor yo'g'i 12 ta milliy madaniy markaz mavjud bo'lgan. Mustaqillikning dastlabki yillaridan Namangan viloyati Respublika viloyatlari ichida Madaniyat markazlari soni bo'yicha oldingi o'rinlardan birini egallagan. Ushbu ma'lumotlarni M.Norinov o'zining dissertatsiyasida keltirib, 2019-yilga kelib, ularning soni viloyatda 80 taga yetganligi aytib. Ayni davrda Sirdaryoda 32 ta, Qashqadaryoda 59 ta Madaniyat markazlari faoliyat ko'rsatayotganligini ta'kidlab o'tadi [2.B 51,52]. Respublikada milliy – madaniy markazlar 2000 – yillargacha 12 ta bo'lgan bo'lsa 2019 – yilda ularning soni 80 taga yetganligi hukumat tomonidan turli millat vakillarining milliy qadriyat va urf-odatlarini targ'ib etishga yanada keng imkoniyatlar ochilganligini ko'rsatadi.

Yusupov Z o'z nomzodlik dissertatsiyasida yozishicha 2000 – yillarning boshida respublikada yahudiylarning 6 ta madaniy markazi bo'lib, ular Toshkent va Samarqandda 2 tadan, Buxoro va Andijonda 1 tadan bo'lgan. 1992 – yilda Toshkent va Buxoro yahudiylar markazlari tomonidan O'zbekistondagi yahudiylarning muzeyi ochiladi. Ularning doimiy nishonlanib kelinayotgan bayramlariga “Pesax”, “Tu-bi-shvat”, “Xanuki” kabi bayramlari misol bo'ladi. Aynan Buxoro yahudiylarining tashabbusi bilan O'zbekistonda yagona bo'lgan “Nekqadam” (Qutlug' qadam) nomli teatr studiyasi ochiladi va bu teatr jamoasi yahudiylar milliy an'analari tiklanishiga katta hissa qo'shadi. O'zbekistonda xorijdagi yahudiy millatiga mansub millat vakillari o'rtasida ham uchrashuvlar tashkillashtiriladi. Jumladan, 2000 – yil 1 – avgustda Turkiston saroyida AQSH va Kanadalik Buxoro yahudiylari tomonidan “O'zbekiston vatanim manim” mavzuidagi xayriya konserti tashkil etiladi [1.B 129]. Yuqoridagi fikrlardan ko'rsak bo'ladiki 2000 – yillarning boshida respublikada milliy – madaniy markazlar sanoqli bo'lgan. Shunday bo'lsada ular tomonidan doimiy ravishda milliy – madaniy tadbirlar va uchrashuvlar tashkillashtirib borilgan.

Buxoro o'zida ko'plab millat vakillarini jamlagan bo'lib, ular bir davlatda bir hududda uzoq tarixdan buyon bir oila bo'lib istiqomat qilib, ko'plab qiyinchiliklar va suronli kunlarni birgalikda yengib ahil inoq bo'lib yashab kelishgan. Aynan shu birdamlikni saqlash, mustahkamlash, milliy birlikni keng yoyish maqsadida respublika va viloyatda milliy madaniy markazlar tizimini yaratish ishlari yo'lga qo'yiladi. O'zbekiston mustaqilligini birinchilar qatorida tan olgan davlat bu Turkiya respublikasidir. Turkiya davlati bizning hududlarni ajdodlarmiz,

qardoshlarimiz yurti deb atab, ildizlarimizning birligini aytib kelishgan. Aynan mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakatimiz hududida tuzilgan dastlabki milliy madaniy markazlaridan biri bu turk milliy madaniy markazi bo'lgan. 1991 - yilda Buxoroga tashrif buyurgan Turkiya maorif vazirining o'rinbosari Abdul Qodir Uyar o'z safarining maqsadini ochiqlab, avvalo ushbu markaz bilan tanishish va Buxoroning qadimiy tarixini o'rganish ekanligini aytadi. Bu inson Buxoro haqiqati gazetasi muxbiri Baxtiyor Asadov bilan bo'lgan suhbatda mazkur markaz SSSR da tuzilgan birinchi milliy madaniy markaz bo'lganligini va u o'z oldiga Buxoro va Turkiya o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada kengaytirish niyatida kelganligini, viloyatda joylashgan sovet – turk milliy madaniy markazini turk me'morchiligi uslubida qayta qurishni ta'kidlaydi. Bundan tashqari Buxoroda turk restorani va hammomi qurishni ham aytib o'tadi. Mehmon Turkiyada hozir 2 milliondan ortiq o'zbeklar yashayotganligini, buxorolik yoshlarni Turkiyada o'qitish taklifini berib, ular uchun barcha sharoitlarni yaratilishini ta'kidab, Buxoroda masjid qurish niyatimiz bor, masjid uchun imomni ham Turkiyadan yuboramiz, maktablarda turk tili darslarini tashkil etib, turk tili o'qituvchilarini ham Turkiyadan yuborish maqsadlari borligini va bu kabi xayrli ishlar ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi [3].

Buxoro viloyati kengashining 1992 – yilda millatlararo munosabatlar va masalalari, til, an'analar va tarixiy merosini asrash masalalari yuzasidan komissiya raisi Muzaffarov A boshchiligida tegishli masalalar muhokama qilinadi. Ushbu kengashda viloyatda faoliyat yuritayotgan tojik, mahalliy yahudiy, koreys va mesxeti-turklari milliy madaniy markazlarining rahbarlari qatnashib o'zlarining axborotlarini bayon qilishadi. Unga ko'ra yahudiy milliy – madaniy markazi rahbari Yakubovga ko'ra markazning faoliyati ancha kengaygan. Markaz yoshlarda baynalmilallik tarbiyasini shakllantirish, ivrit tilini o'rgatish, hayudiyalar urf – odatlarini tiklash kabi ishlarga katta e'tibor qaratilayotganligini va shu masalalar uchun rus va ivrit tilidagi adabiyotlar jamlangan kutubxona shuningdek, ivrit tilini o'rgatish bo'yicha kurslar tashkil qilinganligini ta'kidlagan. Yuqoridagilarga qo'shimcha tariqasida mazkur markaz tomonidan 32 ta o'smir yoshlarning balog'atga to'lganligi tantanalari nishonlanadi, yahudiylarning milliy bayrami bo'lmish "Purim" arafasida viloyat hokimligi yordamida sinagoga ochiladi. Ushbu sinagoga shahardagi ikkinchi sinagoga bo'lgan. Markaz bolalarning yozgi oromgohlarga jumladan, Toshkentdagi "Oqtosh" oromgohida bolalarni ikki mavsumda dam olishlarini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirib kelgan. Keyingi mesxeti-turklar milliy-madaniy markazi rahbari K.Shaxriyev ham O'zbekiston rahbariyati bilan Turkiya o'rtasida diplomatik aloqalarning yaxshilanayotganidan mamnunligini bildirib, Turkiya fuqarolari uchun o'z ajdodlari yurti bilan madaniy aloqalarni yanada rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shayotganlarini ta'kidlagan. Ushbu

markaz rahbari Samarqand, va Qashqadaryo viloyatlarida istiqomat qilayotgan mesxeti – turklari bilan madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yganligini qoshimcha qiladi. Navbatdagi koreys milliy – madaniy markazi rahbari V.Chjen koreys tilini o‘rganish masalalariga alohida qaralayotgani, badiiy havaskorlik qo‘shiq konsert dasturlari tashkillashtirilayotganini unda Pxenyandan ham mehmonlar kelayotganligini aytib o‘tgan. Buxoroda o‘tkazilgan koreyslar milliy bayramida Toshkentning “Chen Chun” va “Marvarid” dastalari ham qatnashgan. Markaz tomonidan “O‘zbekistonda yashayovchi koreyslar tarixi” nomli kitobga buxoroda yashayotgan koreyslar nomlari kiritilayotgani, KXDR bilan madaniy va sport sohasidagi aloqalar kengaytirilayotganligi, ushbu mamlakatdan mehmonlarning milliy – madaniy markazga tashriflari amalga oshirilayotganligi ham ta’kidlangan. Majlisda tojik milliy – madaniyati markazi axboroti ham tinglanib, yaqinda Tojikiston radioeshittirish kompaniyasi bilan hamkorlikda “Buxoro – Dushanbe” radio kanaliga asos solinganligi ikki qardosh xalqlarni bog‘lash uchun qilingan ijobiy yutuq sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari markazlar faoliyatidagi muammolar ham tanqidiy ko‘rib chiqiladi. Unga ko‘ra mesxeti-turklari markazi qurilishi hujjatlarining hali ham tayyorlanmayotganligi, markazning hozirgi binosi talab darajasida emasligi, oliy ta’lim olmoqchi bo‘lgan mesxeti – turklarini tanlash ishlariga sust qaralayotganligi, shunday kamchiliklar tojik milliy – madaniy markazida ham mavjudligi va bu kamchiliklarni tez muddatlarda tuzatish kerakligi alohida ta’kidlab o‘tilgan[4]. Milliy-markazlar faoliyati va ulardagi yutuqlar, muammo, kamchiliklarni muhokama etish ishlariga alohida qaralganligi viloyatdagi turli millat vakillarining talab va takliflari doimo e’tibor markazida bo‘lganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son farmoni[5] ga ko‘ra mamlakatimizda yashovchi turli millat va elatlar vakillarining o‘ziga xos milliy an’analari, urf-odatlar va rasm-rusumlarini asrab-avaylash va rivojlantirishga ko‘maklashish, xorijiy mamlakatlarda davlatimizning tinchliksevar siyosati, demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish borasida O‘zbekistonning maqsad va vazifalarini, shuningdek, bugungi kunda mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan muvaffaqiyatlarni keng targ‘ib qilish maqsadlari belgilab beriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XX asrning so‘nggi yillarida O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlarning shakllanishi mamlakatdagi millatlararo munosabatlarni rivojlantirish va turli millat vakillarining madaniy manfaatlarini ta’minlashda muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur markazlar milliy til, urf-odat, an’ana va qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularni yosh avlodga yetkazishda samarali faoliyat olib bordi. Buxoro viloyatida faoliyat yuritgan milliy-madaniy markazlar hududdagi turli millat va elat vakillarining o‘zaro madaniy aloqalarini mustahkamlashga hamda millatlararo totuvlik muhitini shakllantirishga munosib hissa qo‘shdi.

Ularning madaniy-ma'rifiy tadbirlari jamiyatda o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarining qaror topishiga xizmat qildi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida milliy-madaniy markazlarning faoliyati uchun yaratilgan imkoniyatlar ularning tashkiliy va madaniy salohiyatini yanada oshirdi. Shu bois milliy-madaniy markazlar faoliyati O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatida tinchlik, barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupov Z. O'zbekiston madaniyatida milliylik va baynalmilallik (1970 – 2000 yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2011. B. 120-123.
2. Norinov M. Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida madaniy hayot (1991 – 2023). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2026. B. 50-51.
3. Абдул Қодир Уяр. Илдизимиз бир // Бухоро ҳақиқати. 1991. 28 –сентябрь. № 188.
4. Миллий – маданий марказлар фаолияти муҳокамада// Бухоро ҳақиқати. 1992. 25 – июль. № 91.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining. 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5046-son Farmoni.